

TARJIMADA EKVIVALENTLIK TURLARI VA ULARNING O'ZBEK TARIXIY ROMANLARI TALQINIDAGI AHAMIYATI

Hamroyeva Sharifa Shukur qizi

Buxoro davlat universiteti

s.s.hamroeva@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu tezisda tarjima ekvivalentligining formal, dinamik, denotativ, konnotativ, matniy-me'yoriy va pragmatik turlari tizimlashtiriladi. Nazariy qarashlar Oybekning “Navoiy” va Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanlaridan olingan misollar asosida yoritiladi. Tahlil ekvivalentlikni faqat so‘z yoki gapning lug‘aviy mosligi sifatida baholash tarixiy-madaniy matn uchun yetarli emasligini ko‘rsatadi. Tarjimon semantik mazmun, uslubiy bo‘yoq, personaj ovozi va kitobxonga ta’sirni uyg‘un saqlashi lozim.

Kalit so‘zlar: tarjima, ekvivalentlik, formal ekvivalentlik, dinamik ekvivalentlik, pragmatik adekvatlik, tarixiy roman, milliy-madaniy kod.

Tarjimashunoslikda ekvivalentlik manba matni va tarjima matni o‘rtasidagi mazmuniy-funksional munosabatni belgilovchi asosiy tushunchalardan biridir. Biroq ekvivalentlik “bir so‘zga bir so‘z” shaklidagi mutlaq tenglikni anglatmaydi. Tillar grammatik qurilishi, leksik tizimi, uslubiy imkoniyatlari va madaniy tajribasi jihatidan farqlangani sababli tarjimada barcha qatlamlarni bir vaqtda aynan takrorlash deyarli mumkin emas. Shuning uchun tarjimon muayyan kontekstda qaysi mazmuniy yoki pragmatik xususiyat ustuvor ekanini aniqlab, shunga mos strategiyani tanlaydi.

R. Jakobson interlingval tarjimada tillararo to'liq simmetriya mavjud bo'lmasa-da, xabarni boshqa kod vositasida talqin qilish mumkinligini ko'rsatadi [1]. Y. Nida formal va dinamik ekvivalentlikni farqlaydi. Formal ekvivalentlik manba matnning shakli, grammatik tuzilishi va leksik tarkibiga yaqinlikni ko'zlasa, dinamik ekvivalentlik tarjima o'quvchisida asliyat kitobxoniga yaqin reaksiya hosil qilishga intiladi [2]. Tarixiy romanlarda bu ikki yo'nalish muvozanati ayniqsa muhim: shaklga ortiqcha bog'lanish g'ayritabiiy jumla tug'dirishi, ta'sirga haddan tashqari yo'nalish esa davr koloritini zamonaviylashtirib yuborishi mumkin.

V. Koller ekvivalentlikni denotativ, konnotativ, matniy-me'yoriy, pragmatik va formal-estetik turlarga ajratadi [3]. Denotativ ekvivalentlik predmet yoki hodisa haqidagi asosiy axborotni saqlaydi. Konnotativ ekvivalentlik birlikning baholovchi, emotsional va uslubiy bo'yoqlariga tegishli. Matniy-me'yoriy ekvivalentlik janr va diskurs me'yorlariga moslikni, pragmatik ekvivalentlik qabul qiluvchiga yo'naltirilgan ta'sirni, formal-estetik ekvivalentlik esa obraz, ritm, metafora va individual uslubni qayta yaratishni nazarda tutadi. Badiiy tarjima sifati aynan shu qatlamlarning oqilona uyg'unligiga bog'liq.

Oybekning "Navoiy" romanidagi "Qon to'kmoq fikri menda ham yo'q" jumlasini inglizcha tarjimada "I do not think of shedding blood" tarzida berilgan [4, 459-b.; 5, 325-b.]. Tarjima denotativ mazmunni saqlaydi, ammo "menda ham" komponentidagi hamfikrlik va ruhiy ikkilanish urg'usi kuchsizlanadi. "I, too, have no desire to shed blood" varianti denotativ aniqlik bilan birga personajning ichki pozitsiyasini ham ifodalashi mumkin. Mazkur misol grammatik jihatdan maqbul tarjima har doim ham konnotativ va pragmatik jihatdan to'liq ekvivalent bo'lavermasligini ko'rsatadi.

Shu dialogdagi “bo‘yniga tayoq urmoq” iborasining “hit him with a stick on his neck” shaklida o‘g‘irilishi formal yaqinlikning salbiy oqibatini namoyon etadi. O‘zbekcha ibora kontekstda otaning farzandni qat’iy tarbiyalashi haqidagi metaforik hukmdir; inglizcha literal variant esa jismoniy zo‘ravonlik tasviriga o‘xshaydi va grammatik jihatdan ham tabiiy emas. “It is a father’s duty to discipline him firmly” kabi funksional talqin dinamik va pragmatik ekvivalentlikka yaqinroq. Demak, obrazning tashqi shakli nishon tilda noto‘g‘ri implikatura tug‘dirsa, uning kommunikativ vazifasini saqlaydigan transformatsiya zarur.

“It hurar, karvon o‘tar” maqolining “The dog barks, the caravan goes on” tarzida tarjima qilinishi esa formal obraz va funksional ta’sir birga saqlanishi mumkin bo‘lgan holatdir [4, 188-b.; 5, 165–166-b.]. Maqolning mantiqiy tuzilishi xorijiy o‘quvchi uchun kontekstdan anglashiladi, milliy karvon obrazi esa tarixiy-madaniy koloritni kuchaytiradi. Biroq shu parchadagi “har qadamda sizga tosh otadi” metaforasining “is trying to denigrate you” tarzida neytrallashtirilishi siyosiy hujum va doimiy dushmanlik obrazini qisqartiradi. Bu yerda mazmun saqlanib, formal-estetik ekvivalentlik pasaygan.

Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida Boburning Humoyun atrofida uch marta aylanishi xalqona tasadduq va jonni fido qilish mazmunlarini faollashtiradi [6, 412-b.]. “Went round the bed of Humayun three times” varianti harakatni qayd etadi, ammo uning ritual-pragmatik sababini ochmaydi [7, 584-b.]. “Circumambulated Humayun’s bed three times in an act of self-sacrifice” shaklidagi ixcham eksplikatsiya xorijiy o‘quvchiga marosim funksiyasini tushunishga yordam beradi. Bu holat madaniy realiyalar tarjimasida denotativ

ekvivalentlik bilan izohli kompensatsiya birgalikda qo'llanishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Ekvivalentlikni baholashda tarjimaning maqsadi va adresati ham hisobga olinishi lozim. P. Nyumark semantik tarjimani manba matnning aniq kontekstual ma'nosiga, kommunikativ tarjimani esa o'quvchida tabiiy va tushunarli ta'sir yaratishga yo'naltiradi [8]. Tarixiy-badiiy matnda sof semantik yoki sof kommunikativ yondashuv yetarli emas. Tarjimon tarixiy unvon, diniy marosim yoki milliy maqolni saqlagan holda, zarur joyda kontekst, izoh, parafraz yoki pragmatik kompensatsiya orqali uning funksiyasini ochishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, tarjima ekvivalentligi ko'p qatlamli va nisbiy hodisadir. Tarixiy roman tarjimasida denotativ aniqlik boshlang'ich talab bo'lsa-da, u personajning nutqiy portreti, muallifning bahosi, davr ruhi va milliy-madaniy kodlar bilan to'ldirilishi zarur. Formal ekvivalentlik obrazni tabiiy saqlagan holatlarda foydali; literalizm noto'g'ri implikatura tug'dirganda esa dinamik, pragmatik yoki kommunikativ yechimga murojaat qilish maqsadga muvofiq. Shunday yondashuv asliyatning mazmun va estetik vazifasini nishon tilda imkon qadar yaxlit qayta yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jakobson R. On Linguistic Aspects of Translation // On Translation. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1959. P. 232–239.
2. Nida E. A. Toward a Science of Translating. Leiden: E. J. Brill, 1964. 331 p.

3. Koller W. Equivalence in Translation Theory // Readings in Translation Theory. Helsinki: Finn Lectura, 1989. P. 99–104.
4. Oybek. Navoiy: roman. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. 480 b.
5. Tukhtasinov I. M., Muminov O. M. Navoiy. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. 376 p.
6. Qodirov P. Yulduzli tunlar: roman. Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018. 576 b.
7. Tukhtasinov I. M., Yoʻldoshev U. R., Khamidov A. A. Starry Nights: Novel/Babur. Samarkand: SamSIFL, 2018. 624 p.
8. Newmark P. A Textbook of Translation. New York–London: Prentice Hall, 1988. 292 p.